XALQ DEPUTATLARI RISHTON TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 14-noyabr VII-14-92-11-158-K/25 Rishton tumani

Rishton tuman mahalliy byudjetning 2025-yil III chorak daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hamda O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 120-moddasi to‘rtinchi qismiga muvofiq byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar kamaytirilishi natijasida bo‘shab qolgan qo‘shimcha mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 25-dekabrda qabul qilingan “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuniga (Keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi) muvofiq, Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda erkinliklar berilib, soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha stavkalarini belgilash, mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirildi.

Yuqoridagilarni va sessiyada deputatlar tomonidan bildirilgan takliflarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunini 6 va 24 moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Rishton tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 25-dekabrda qabul qilingan “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuniga (Keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi.) muvofiq, Rishton tumani mahalliy byudjetining 2025 yil III chorak daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘lari jami **2 617 901,8** ming so‘m (daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi 2 508 696,1 ming so‘m, yer sotishdan tushgan tushum 109 205,7 ming so‘m) miqdorida shakllangan.

2. Rishton tuman hokimligining mahalliy byudjetning 2025 yil III chorak daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘larini birinchi

navbatda Hukumat qaror va bayonlarida ko‘zda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirishga, muhim Davlat dasturlari ijrosini ta’minlashga, aholini turmush farovonligini oshirishga hamda favqulodda vaziyatlarda va kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalar ijrosini ta’minlashga yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

3. Tuman mahalliy byudjetining 2025 yil III chorak daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hamda maqbullashtirilgan mablag‘lar hisobidan mablag‘lari belgilangan maqsadlar uchun yo‘naltirilishi ilovaga asosan ta’minlansin. Bunda,

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 5072-sonli Qarorining 1-bandiga asosan fuqarolar ishtirokining tuman byudjetlari qo‘shimcha manbalarining kamida 30 foizini “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish uchun **752 609,0** (yetti yuz ellik ikki million olti yuz to‘qqiz) ming so‘m,

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6–7-may kunlari Farg‘ona viloyatiga tashrifi yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan majlis bayonining 18-bandiga asosan, o‘z vazifalarini vijdonan, shuningdek, alohida muhim va mas’uliyatli ishlarni bajarayotganligi, ish samaradorligi va mas’uliyatini oshirish, moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, turmush sharoitlarini yanada yaxshilash, ular o‘rtasida korrupsiyaviy muhitni shakllanishini oldini olish maqsadida tuman hokimligining texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlari, ko‘nikma markazi va tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi xodimlarini 2025 yil oktyabr, noyabr va dekabr oylari uchun bir oylik ish haqi miqdorida (belgilangan rag‘batlantirish qo‘shimchalar bilan birga) 100 foizi miqdorida ustama to‘lash uchun jami **319 478,0** (uch yuz o‘n to‘qqiz million to‘rt yuz yetmish sakkiz) ming so‘m,

- Fuqarolik ishlari bo‘yicha Rishton tumanlararo sudining ijro varaqalariga asosan davlat boji, ekspertiza, sud hamda boshqa xarajatlarni qoplash uchun **324 045,0** (uch yuz yigirma to‘rt million qirq besh) ming so‘m,

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda xukumati qaror va farmonlarida belgilangan tadbirlar uchun **1 221 769,8** (bir milliard ikki yuz yigirma bir million yetti yuz oltmish to‘qqiz) ming so‘m belgilangan tartibda yo‘naltiriladi.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 25 dekabrdagi RQ-455-sonli qarorining bajarilishini ta’minlash maqsadida, tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlarining 2025 yil xarajatlar smetasida bo‘sh turgan shtat birliklari hamda samarasiz xarajatlar xisobidan maqbullashtirish natijasida shakllangan 71 152,0 ming so‘m mablag‘lar xisobidan,

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 27 fevral kungi 03-03/1-4456-sonli ro‘yxatga olingan 6-sonli yig‘ilish bayonining IV bo‘lim 4.2 xatboshiga asosan maqbullashtirilgan mablag‘lar hisobidan budjet

tashkilotlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlari zaruriy xarajatlari uchun shuningdek, qolgan qismini Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda bugungi kunda hal etilishi lozim bo‘lgan dolzarb tadbirlarga yo‘naltirish belgalanganligi sababli:

tuman fermer xo‘jaliklari buxgalteriyasi markazining ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlari uchun **71 152,0** (yetmish bir million bir yuz ellik ikki) ming so‘m mablag‘larni qoplash uchun qo‘shimcha manbaa hisobidan (maqbullashtirish) yetishmagan mablag‘ ajratish maqsadga muvofiq deb hisoblansin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (D.Raxmonqulov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i birinchi o‘rinbosari (I.Djurayev)lar tegishli ravishda budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini Kengashga kiritib borilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi raisi Z.Axmedov hamda tuman hokimining birinchi-o‘rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i D.Raxmonqulov zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi XOLIKOV BAXODIR RAXMATULLAYEVICH

Xalq deputatlari Rishton tumani Kengashining
2025-yil 14-noyabrdagi
VII-14-92-11-158-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Rishton tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan tegishli tadbirlarga ajratilayotgan mablag‘lar to‘g‘risida MA’LUMOT

№	Mablag‘ ajratish ko‘zda tutilgan tadbirlar nomi	Mablag‘ ajratishga asos va so‘rov	Mablag‘ ajratiladigan tashkilot nomi (Budjet buyurtmachisi)	Mablag‘ manbasi	Ajratilgan mablag‘ (ming so‘m)
1	"Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish uchun	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 5072-sonli Qarorining 1-bandi	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga	2025 yil III chorak daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hisobidan	752 609,00
2	Tuman xokimligi hamda iqtisodiyot va moliya bo‘limlariga qo‘shimcha ish xaqi (tuman hokimligining texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlari va ko‘nikma markazi ish xaki 39426,0 min so‘m, ijtimoiy soliq 9857,0 ming so‘m, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi ish xaki 216156,0 min so‘m, ijtimoiy soliq 54039,0 ming so‘m.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6-7-may kunlari Farg‘ona viloyatiga tashrifi yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan majlis bayonining 18-bandi	Tuman hokimligi va tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limiga	2025 yil III chorak daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hisobidan	319 478,00

3	Fuqarolar bo‘yicha Rishton tumanlararo sudining ijro varaqalariga asosan (davlat boji, ekspertiza va sud xarajatlari hamda boshqa xarajatlar uchun)	Fuqarolik ishlari bo‘yicha Rishton tumanlararo sudining ijro varaqalari	Tuman hokimligiga	2025 yil III chorak daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hisobidan	324 045,00
4	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda xukumati qaror va farmonlarida belgilangan tadbirlar uchun	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda xukumati qaror va farmonlarida belgilangan tadbirlar uchun	Tuman hokimining tegishli qaror va farmoyishlariga asosan	2025 yil III chorak daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hisobidan	1 221 769,80
5	Rishton tuman Fermer xo'jaliklari buxgalteriyasi markazi xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to`lovlari yetishmagan qismi uchun	Rishton tuman Fermer xo'jaliklari buxgalteriyasi markazining 16.10.2025 yil kungi 9-sonli xati	Rishton tuman Fermer xo'jaliklari buxgalteriyasi markazi	Maqbullashtirilgan mablag`lar hisobidan	71 152,00
JAMI		**X**	**x**	**x**	**2 689 053,8**